



MAVLONO RUMIY VA ASKETIZM

Sanoyeva Dildora Qaxorovna

Buxoro davlat universiteti

xorijiy tillar fakulteti

„Nemis va fransuz tillari“

kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Asketizm termini lotin tilidan kirib kelgan bo'lib, zohidlik ya'ni Parvardigorning marhamatiga musharraf bo'lish uchun tarki dunyo qilish zarurligi haqidagi diniy tasavvur bo'lib, uning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etish demakdir. Bunda Allohga shirk keltirishdan saklanish va ibodatda riyodan xoli bo'lish, ortiqcha dunyoviy ashyolarga mexr qo'ymaslik nazarda tutiladi. Bu sifatni anbiyolar, olimu- ulamolar qatorida buyuk mutafakkir, faylasuf shoir Mavlono Jaloliddin Muhammad Balxiyda ham mavjudligiga uning shoh asarlari guvohlik berishiga aslo shubha yo'q.*

Kalit so'zlar: *Asketizm, tasavvuf, tariqat, falsafa, Mavlono, Jaloliddin Muhammad Rumiy, Balxiy, "Ma'naviy Masnaviy", qanoat.*

Jahon adabiyotini o'z durdonalari bilan boyitgan ulug'lardan biri Jaloliddin Muhammad Rumiy 1207 yilning 30 sentabrida hozirgi Afg'oniston hududidagi Balx shahrida tavallud topib, 12 yoshligidan Mo'g'o'l bosqinchilari sababli qolgan umrini asosan Turkiyaning Konya shahrida o'tkazadi. U butun umri davomida haqqoniy mo'min banda singari hayot kecherib, payg'ambarimiz Muhammad alayhi vassalamni o'zi uchun namuna bilib, inson dunyoga faqat yeb-ichish, o'ynab-kulish, boyluk orttirish, baland mavqelarni egallash, umuman dunyoviy orzu-havaslarining quli bo'lib yashash uchun emas, balki, eng avvalo o'zini yaratgan Zotni – Allohni tanish, Uning amrlarini ado etish uchun, U bilan o'zi o'rtasidagi misoqni bajarish uchun – o'z asliga, ma'naviyat olamiga, Parvardigorga munosib tarzda, yaxshi so'z, yaxshi xulq, yaxshi fe'l bilan va orif holda komil, mukammal bo'lib qaytish uchun intilib yashashi lozimligini, Islom dinining barcha oqimlari va boshqa dinlar uchun u yagona g'oyani ilgari surib, unda Yaratganga bo'lgan muhabbatni, uning kuchiga bo'lgan e'tiqodni, niyat va ishlarning pokligini tarannum etgan, umrining oxirigacha Xudoning oldida barcha tengligini targ'ibot qilgan.

Sipaxsalarning yozishicha Mavlono yoshlikdan hayotining so'ngicha Yaratganga sajda qilishdan charchamagan. Uni hech qachon boshini yostiqqa egib, to'shakda bemalol dam olganini qirq yillik hizmati davrida ko'rmagan ekan. Kunlardan birida ibodatdan so'ng, uyqu barcha yig'ilganlarni yengdi, Mavlono devorga suyanib muborak boshlarini tizzalariga tushirgan bir paytda, Shayx Muhammad Xodim kelib, keng yaktak bilan muborak yelkalarini yopdi. Barcha uyquga ketgandan keyin, o'rnlaridan turib yana ibodat qilishni davom ettirgan. So'ngra aylanib yurishni boshlar, sira





to'xtamas va dam olmas ekan. Bu haqida uning o'zi durdona asari "Ma'naviy Masnaviy" da shunday deydi:

*Ahdu paymonlar etarsen: turmushim
Emdi shul — toat-ibodatdir ishim.
Baski, qismat ayladi bemor seni,
Etdi ul bemorliging bedor seni.
Ey rafiq, bil emdi hikmat shul turur:
Kimda dard ersa, o'shal ogoh erur.
Kimki bedordir, dilida dardi bor,
Kimki ogohdir, yuzida zardi bor.*

Darhaqiqat, har bir lahzamiz imtihondan iborat bu holu hayotimizda, tarbiyasiz nafsimizning bizni yo'ldan o'radigan turli hiylayu nayranglari bitta emas, minglab Zulayholarni dog'da qoldirishiga shubha yo'q. Zero, nafsni dunyodagi eng zolim, eng qonxur shohga qiyoslagan Mavlono Rumi bu holatimizni quyidagicha izohlab beradi:

«Ey, Haq yo'lchisi! Haqiqatni bilmoqchimisan! Unda eshit: Muso ham Fir'avn ham o'lmagan! Ular sening ichingda yashayapti. Ular sening borlig'ing ichiga yashirinib olgan. Sening qalbingda o'zaro urush qilishda davom etmoqda! Shu sababdan ham bir-biriga dushman bo'lgan bu ikki kishini ichingdan chiqarib tashlashing kerak!...».

Mavlono yana bizga qoldirgan o'lmas xazina "Ma'naviy Masnaviy" asarining uchinchi daftaridagi "Fil qissasiga qaytish" sarlavhasi ostida nafs insonni qay kuylarga solishi haqida, nasihatga quloq solish, qanoatli bo'lishga chaqirib, shunday misralarni qoldiradi:

*Ul nasihatchi dedikim, tinglangiz,
G'am-mashaqqatlarga jonni qo'ymangiz.
Maysa, yaproq yeng, qanoat yaxshidir,
Aylamang filbachchalarga hech daxl.
Men so'zim aytdim, nasihat ayladim,
Ey, nasihatdin yomonlik ko'rdi kim?
Elchidirmen sizga, yot deb o'ylamang,
So'nggida afsus-nadomat aylamang.
Topsa ochko'zlik magar ko'ngilga yo'l,
Ildizingizdin qo'porgay sizni ul.
Xayr-xush, deb yo'lga so'ng bo'ldi ravn,
Ul guruhni bo'g'di ochlik beomon.
Oldi ochlik zabtiga, bardosh qani?
Ko'rdilar yo'l uzra bir filbachchani.
Ustiga och bo'ridek tashlandilar,
Bir nafasda tilka-pora qildilar.
Bittasi tiydi o'zin, qo'l urmadi,
Ko'ngliga pandu nasihat yor edi.
Boqmadi jizza kabobga ul alim,*



*Baxtini baxsh ayladi aqli salim.
Yeb-ichib ul jumla yotdi, yumdi ko'z,
Ul esa och erdi, bedor, uyqusiz.
Ko'rdikim, qo'rqinch, bahaybat fil kelur,
Uyqusizning boshi uzra keldi ul.
Og'zini uch karra takror hidladi,
Og'zidin lekin yomon hid kelmadi.
Necha karra aylanib atrofidan,
Bir ziyon yetkazmadi fil da'atan.
So'ngra bordi uxlaganlar qoshiga,
Cho'zdi xartum har birining boshiga
Hidladi bir-bir ularni, xullasi,
Fil kabobidin yemishdi barchasi.
Fil ularni toptadi, etdi xarob,
Har birining joniga yetdi azob.
Dast ko'tardi ko'kka, yerga urdi ul,
Bitta-bitta burdalab, o'ldirdi ul.
Eyki, oziq senga shul xalqning xuni,
Xalq xuni bir kun base tutgay seni.
Molini sen qoni deb bil bir yo'la,
Chunki topgay molini zahmat ila.
Ona fil bir kun muqarrar o'ch olur,
Ul necha filbachchaxo'rni o'ldirur.
Sen necha filbachcha yersan, poraxo'r,
Ona filni bir kuni qarshingda ko'r.*

Bu hikoyada Mavlono Rumiy fil bolasini yeyish deb g'iybatni nazarda tutgan. Shu bilan birga, hid alomatiga urg'u beradi. Ona fil og'izdagi hidlardan yomon insonlarni tanidi.

Rumiy deydi: "G'iybat, kibr, hirs va shahvat huddi piyoz, sarimsoq yegan insonning og'zidan kelayotgan hidga o'xshaydi. Sarimsoq, piyoz yegan kishi "Men ularni yemaganman", deb har qancha qasam ichsa-da, gapirayotganida yonidagilar uning hidini sezishadi. Binobarin, kibrli va haddan ziyod ehtirosli kishi tili bilan "Menda bu yomon xislatlar yo'q", desa ham, holi va xatti-harakatlari uning aslini ko'rsatib turadi..."

Bundan ko'rinadiki, Jaloliddin Rumiyning maqsadi insoniyatni g'ofillikdan uyg'otib, uning faqat moddiyat asiri bo'lib qolmasligi, o'z mohiyatini teran anglashga undash, va haqiqiy ilm va hikmatning boshi bo'lgan Allohni tanishga, Uning jamoliga musharraf bo'lishga chaqirishdir. Buning uchun inson vujudidagi yot sifatlarni mag'lub qilib, insoniylik sifati zuhur etilishi kerak bo'lishini nafaqat asarlari bilan, balkim shaxsan o'z hatti harakatlari va sifatlari bilan namuna bo'la olgan.

Mavlono Rumiy asarlaridagi diniy-irfoniy g'oyalar islom tasavvufining asosida shakllangan bo'lsa-da, Mavlono o'z davrida mustaqil o'ziga xos pozitsiyasiga ega edi.





Bu uning islom va tasavvuf ma'naviyati xalqchil ruhda falsafiy mushohadalarga boy hikoyatlar va masnaviy janrida bitilgan she'riyatida namoyon bo'ladi. Jaloliddin Rumiy she'riyati yuksak estetik mazmunga ega bo'lib, undagi ma'naviy g'oyalar irqi, millati va dinidan qat'i nazar, insonning o'zini anglashiga xizmat qiladi, inson qalbiga boruvchi barcha yo'llarni birlashtiradi va azaliy mohiyatlarni kashf qilib, insoniyatni bag'rikenglik va ma'naviy komillik sari yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tukhsanov Kahramon Djamal Kamal is an experienced translator. International Scientific Journal ISJ Theoretical, Applied Science Philadelphia, USA, issue 04, volume 84 published April 30, 2020. Of publication with Impact Faktor. <http://s-o-i.org/1.1TAS-04-84-173>. [https:// dx. Doi. org/10. 15863/TAS](https://dx.doi.org/10.15863/TAS). – P.950-956.

2. Abdikarimovich, Mr B. O. "The True Values of the Mavlono Jaloliddin Muhammad Rumiy's Philosophy in Russian Translations." International Journal on Orange Technologies, vol. 2, no. 12, 31 Dec. 2020, pp. 68-71, doi:10.31149/ijot.v2i12.1091.

3. Abdikarimovich, B. O. . (2021). The views of Jalaliddin Rumi. Middle European Scientific Bulletin, 12,319-322.Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/556>

4. Ramazonovna T. S. On binary structured speech products in french //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 10. – C. 381-386.

Djalolov Furqat Fattohovich. (2021). Causes of Low Assimilation of Knowledge at General Secondary Schools. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.472>

5. Худоев С. ВЫРАЖЕНИЕ БУДУЩЕГО ВРЕМЕНИ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

6. Ruziev Y., Khudoev S., Rakhmatov A. The use of the past tensesin German and English //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 6. – C. 61-66.